Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent Seytmusayev Abatbay Idirisovichning ilmiy, pedagogik va jamoatchilik faoliyatidan qisqacha ocherk



Seytmusayev Abatbay Idirisovich 1955-yili Kegeyli tumanining hozirgi Abat qishloq hududida tug‘ilgan. Oilali 6 farzandning otasi. O‘zimning mehnat faoliyatini 1982-yili Toshkentdagi "Xalqlar do‘stligi" ordenli Qishloq xo‘jaligi institutining agronomiya fakultetini tamomlagan. Mehnat faoliyatini Akademik Shamurat Musayev nomidagi Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining fiziologiya laboratoriyasida kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlashdan boshlagan. 1982-1996-yillar oralig‘ida Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida Paxtaning seleksiya va urug‘chiligi laboratoriyasida katta ilmiy xodim, toza navlarni konkursda sinash guruhi va beda, paxtaning elita urug‘chiligi boshqaruvchisi bo‘lib ishlagan. Ishlagan davrida ilmiy va dissertatsiya ishlari bo‘yicha markaziy jurnallar, gazetalarga maqolalar va ilmiy konferensiyalarda qatnashib ma’ruzalar o‘qigan.

1986-1990-yillar oralig‘ida Toshkentdagi G.S.Zaysev nomidagi Paxta seleksiyasi va urug‘chiligi ilmiy tadqiqot institutida sirtdan aspiranturada o‘qigan.
1993-yili O‘zbekiston Respublikasi g‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi ilmiy-tadqiqot institutining ixtisoslashgan kengashida 06.01.05-"Seleksiya va urug‘chilik" mutaxassisligi bo‘yicha "G‘o‘zaning ayrim liniyalarida fenotipik va genotipik o‘zgaruvchanlikni barqarorlashtirish" mavzusida nomzodlik dissertatsiya himoyasi va dissertatsiya natijasi bo‘yicha paxtaning yangi Chimboy-3158 navini chiqarib davlat nav sinash maydonlarida sinovga berildi. 1996-1997 yillar oralig‘ida Kegeyli tumani qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasida dehqonchilik bo‘yicha o‘rinbosari 1997-2007-yillar oralig‘ida Qoraqalpog‘iston Respublikasi "Paxta urug‘chilik" birlashmasi boshlig‘i lavozimida ishlab Respublikamizning

fermer xo‘jaliklarini yuqori reproduksiyali sifatli urug‘lik chigit bilan ta’minlash va g‘o‘za navlarini ishlab chiqarishga joylashtirish bo‘yicha ishlar olib borgan.
2007-2010 yillarda Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining ilmiy va amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i lavozimida, 2010-2013-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi "Paxtachilik va texnik ekinlarni rivojlantirish va navlar bo‘yicha joylashtirish" bo‘limi boshlig‘i lavozimida, 2013-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutining kimyo laboratoriyasida katta ilmiy xodim lavozimida, 2017-2021 yillarda Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali "Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasida katta o‘qituvchi va dotsent lavozimida, 2022 yildan buyon Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chilik kafedrasida dotsent lavozimida ishlab kelmoqda.

Ishlagan yillari davomida ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashib kelmoqda, 1 ta fundamental, 3 ta ilmiy-texnik, 4 ta innovatsion va 1 ta amaliy loyihada rahbar va ilmiy xodim sifatida ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan AL-9424104858-sonli ilmiy loyihada O‘zbekiston Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universiteti olimlari bilan birgalikda "Orol dengizining qurigan tubi qoldiq botqoq sho‘rlangan tuproq-gruntlarining tarkibini yaxshilash orqali o‘simlikning o‘sishi uchun qulay sharoit yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada katta ilmiy xodim bo‘lib ilmiy ishlar olib bormoqda. Institutimizning bakalavriat talabalari va magistrantlariga ma’ruza, amaliy va laboratoriya darslaridan ta’lim berib kelmoqda.

Hozirgacha jami 50 dan ortiq ilmiy ishlari nashrdan chiqarilgan, shundan 1 o‘quv qo‘llanma, 3 ilmiy metodik qo‘llanma nashrdan chiqarilib talabalar va o‘qituvchilar orasida keng foydalanib kelinmoqda.

Insoniy fazilatlariga ko‘ra, u tom ma’nodagi ziyoli bo‘lib, odobliligi, yuksak madaniyati va qat’iy axloqiy tamoyillari bilan ajralib turadi.

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori: **M.Davletmuratov**

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi: **M.Berdimuratov**